

Turkiy davlatlar sammitida sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish borasida muhim tashabbuslar ilgari surildi



Joriy yilning 12 noyabr kuni Turkiya Respublikasining Istanbul shahrida Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining sakkizinchi sammiti bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri ekanligini ta'kidlab, Kengashga a'zo mamlakatlarda mavjud bo'lgan ixtisoslashgan tashkilotlar negizida «Injineriing va texnologiyalar markazlari»ni tashkil etish tashabbusini ilgari surdi. Shu bilan birga, mazkur tashabbus doirasida 2022 yil O'zbekistonda «Turkiy davlatlar sanoat haftaligi»ni o'tkazish taklif etildi.

Ta'kidlash kerakki, Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashiga a'zo mamlakatlar bilan sanoat kooperatsiyasini kengaytirish O'zbekiston iqtisodiyoti uchun bir qator yangi imkoniyatlar yaratadi.

Birinchidan, tashkilotga a'zo mamlakatlarda mavjud texnologiyalardan hamkorlikda foydalanish va o'zaro bilim hamda tajriba almashish imkoniyatlari kengayadi. Bu o'rinda kooperatsion aloqalarni chuqurlashtirish ilmiy texnika va tajriba konstruktorlik ishlanmalaridan yanada samarali tarzda foydalanish uchun sharoit yaratadi.

Ikkinchidan, milliy iqtisodiyotda raqobatbardoshlik darajasi ortadi. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish borasida davlatlararo hamkorlik aloqalarini kengaytirish, miqyos samarasidan to'laqonli foydalanish va iqtisodiyotga zamonaviy texnologiyalarni keng jalb qilish hisobiga milliy mahsulotlarning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshiradi.

Uchinchidan, yangi ish o'rinlari yaratiladi. Mazkur jihat har bir mamlakat iqtisodiyoti uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki ishsizlik darajasining o'sishi yalpi ichki mahsulot hajmining qisqarishiga va iqtisodiy taraqqiyotning sekinlashuviga sabab bo'ladi.

To'rtinchidan, Kengashga a'zo mamlakatlar iqtisodiyotida mavjud va foydalanilmayotgan imkoniyatlarni ishga solishga zamin yaratiladi. Ta'kidlash zarurki, O'zbekiston yengil sanoat, turizm, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash kabi sohalarda ulkan imkoniyatlarga ega. Bu yo'nalishlarda Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashiga a'zo mamlakatlar bilan kooperatsion aloqalarni kengaytirish esa iqtisodiy taraqqiyotimizga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Beshinchidan, eksport hajmi ortadi. Xususan, kooperatsion aloqalarning rivojlanishi davlatlar o'rtasidagi savdo aloqalarining jadallashuviga sabab bo'ladi.

Bu o'rinda, hamkorlikda injiniring va texnologiyalar markazlarini tashkil etish texnologik taraqqiyotni jadallashtirish, innovatsion va hozirgi zamon talablariga javob beradigan ishlanmalarni yaratish mazkur yo'nalishlardagi imkoniyatlarni birlashtirish nuqtai nazaridan dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda Turkiy davlatlar sanoat haftaligini o'tkazish esa ushbu tashabbuslarni amalga oshirish uchun muhim qadam hisoblanadi.

Azimbek Najimov

***O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar
Instituti yetakchi ilmiy xodimi***